

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA XALQARO ISHCHI KUCHI MIGRATSIYASI

Abduaxatov Shaxrux Zokir ògli

Annotatsiya: Ushbu tezis rivojlangan mamlakatlarda xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: Xalqaro migratsiya tashkiloti, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, migratsiya tendensiyalari, mehnat migrantlari huquqlari.

Xalqaro migratsiya tashkilotining (XMT) hisob-kitoblariga ko'ra, xalqaro muhojirlar soni dunyo bo'ylab 272 million kishiga yetgan va ularning uchdan ikki qismi mehnat migrantlari hisoblanadi. Bu dunyo aholisining 3,5 foizidir. 2019- yilda muhojirlarning pul o'tkazmalari 689 milliard AQSH dollaridan oshgan.

Bu haqda Toshkent shahrida "O'zbekistonda yoshlar mehnat migratsiyasini tartibga solish istiqbollari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy videokonferensiyada ma'lum qilindi.

Videokonferensiya Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari huquqlarini himoya qilish masalalari va xalqaro iqtisodiy hamkorlik departamenti, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT) va Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YEXHT) hamkorligida tashkil etildi.

2019-yilda AQSH, Germaniya, Saudiya Arabistoni va Rossiya Federatsiyasi yana migrantlarni qabul qiladigan mamlakatlar ro'yxatida birinchi o'rinni egalladi.

Migratsiya tendensiyalari 70 milliondan ortiq aholi yashaydigan Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham kuzatilmoqda. Xususan, yoshlar migratsiyasi. Migratsiya nuqtayi nazaridan mintaqaning barcha mamlakatlarida umumiy xususiyatlarni kuzatish mumkin. Masalan, Qozog'iston ish beruvchi davlat bo'lsa, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston asosan ishchi kuchi yetkazib beradigan davlatlar hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda mehnat migratsiyasini tartibga solishning huquqiy va institutsional asoslari, xorijda mamlakat fuqarolarini himoya qilish mexanizmlari shakllantirildi. Yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, har yili 600 mingdan ziyod bitiruvchi mehnat bozorida barqaror ish o'rinlarini yaratishni talab qilmoqda va ularning aksariyati ish qidirayotganligi ushbu sohadagi ishlar yetarli darajada olib borilmayotganini ko'rsatadi. Ushbu vaziyatdagi asosiy vazifalardan biri tartibli mehnat migratsiyasini tashkil qilishdir.

Tashqi mehnat migratsiyasi sohasini liberallashtirish O'zbekiston mehnat migrantlariga xalqaro mehnat bozorining to'laqonli ishtirokchilariga aylanishiga imkon berdi. Xususan, qabul qilingan o'ndan ortiq normativ-huquqiy hujjatlardan tashqari, xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini tashkil etish sohasida ikki tomonlama hukumatlararo bitimlar tuzildi.

Kasbiy ta'lim darajasi mehnat bozorida ham faollikka, ham munosib mehnat sharoitlariga ega bo'lish imkoniyatiga ta'sir qiluvchi yana bir muhim omil. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi besh yilda kollej bitiruvchilarining o'rtacha 45-50 foizi o'z mutaxassisligi bo'yicha ish bilan ta'minlangan. Ushbu muammolarni hal qilish, mehnat migrantlarini qayta birlashtirish maqsadida 2020-yilning

o'tgan davri mobaynida Bandlik va mehnat munosabatlarivazirligitomonidan 151 ming yoshni ish bilan ta'minlashga yordam berildi. Jamoat ishlari fondidan yoshlarni jamoat ishlariga jalb qilish orqali bandligini ta'minlash uchun 60 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratildi.

Shuningdek, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi 5,8 ming yosh tadbirkorga subsidiya sifatida qishloq xo'jaligi kooperativlarining ustav fondiga 13 milliard so'mga yaqin mablag' ajratdi. "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" Davlat dasturida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga topshirilgan 30 ta kollej bazasida, Toshkent shahrining har bir tumanida kamida bittadan "Ishga marhamat" monomarkazi va kasb-hunar ta'limi markazlarini tashkil etish ko'zda tutilgan.

Mazkur markazlarda birinchi navbatda ishsiz va kam ta'minlangan oilalar a'zolariga tadbirkorlik va kasb-hunar asoslari o'rgatiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi tuman va shaharlarida bosqichma-bosqich shunday monomarkaz va kasb-hunar ta'limi markazlari tashkil etish rejalashtirilmoqda.

Shu bilan birga, mehnat migrantlariga munosib sharoitlar yaratish, ularning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish uchun vakolatli xorijiy tashkilotlar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish talab etiladi. Bu, o'z navbatida, sohani yana-da takomillashtirish, xorijiy tajribani o'rgangan holda mamlakatimizda tashqi mehnat migratsiyasiga taalluqli hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritishni talab etadi.

– O'zbekistonda mehnat migratsiyasi asosan tashkillashtirilmagan, – deydi "Huquqiy muammolarni o'rganish markazi" NNT direktori Shamil Asyanov. – Chunkimamlakatda migratsiyasohasidagimunosabatlarnitartibgasolishningzarur tashkiliy-huquqiy mexanizmlari, migrantlarni chet ellarda uyushgan holda yollash, ishga joylashtirish, o'qitish, hayoti hamda sog'lig'ini sug'urtalash va hokazolarni belgilovchi maxsus qonunchilik mavjud emas.

Vaziyat o'rganilganida Farg'ona, Surxondaryo va Xorazm viloyatlaridan xorijga ishlash uchun ketayotgan migrantlarni tanlab olishda shu kabi holatlar ma'lum bo'ldi. Mamlakatda tashqi mehnat migratsiyasi yuqori darajada saqlanib qolyapti. Misol uchun, O'zbekistonda ish haqi ish beruvchi mamlakatlardagi ish haqiga nisbatan past. 2017-2018-yillarda O'zbekistonda eng yuqori o'rtacha ish haqi gaz va neftni qayta ishlash sanoatida kuzatilgan (400 AQSH dollari), sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida esa o'rtacha ish haqi past (150-170 dollar). Qishloq xo'jaligi sohasida ishchilar uchun ish haqi 100 dollargacha. Shunday qilib, migrantlarning daromadi mahalliy aholining o'rtacha daromadidan ikki yoki uch baravar ko'pdir. Konferensiyada migratsiya siyosatini ishlab chiqishda xalqaro qonunchilikning o'rni, O'zbekiston yoshlarining kasbiy faoliyati, xorijdagi mehnat migrantlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, yoshlar mehnat migratsiyasini tartibga solish istiqbollari kabi mavzularda ma'ruzalar tinglandi.

Ta'kidlandiki, migratsiya jarayonlarida ishtirok etayotgan yoshlarda xalqaro talablardagi bilim va ko'nikmalarning shakllanishi, ish tajribasining oshishi o'z samarasini beradi. Shu sababli, migratsiya jarayonlarida faol ishtirok etayotgan o'zbekistonlik yoshlarga ko'mak berish, ular duch kelayotgan muammolarga yechimtopish, o'z haq-huquqlarini to'g'ri anglab olishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish lozim. Shuning uchun yosh avlodga O'zbekiston hamda xorijiy davlatlar qonunchiligi, mehnatresurslari, tili va madaniyati haqida doimiyaxborotlar, ilmiy- uslubiy qo'llanmalar orqali puxta bilim berilsa, qator muammolar hal etilishi mumkin.

Ish beruvchi tomonidan mehnat migrantlari huquqlari buzilishining oldini olish, mehnat migratsiyasi jarayonlarining faollashuvi va unda yoshlar ishtiroki tobora ortib borayotgani, 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarning migratsiya jarayonidagi faol ishtiroki, mamlakat iqtisodiy

ko'rsatkichining o'sishi, aholi bandligini vaqtincha ta'minlashga ijobiy ta'sir qilishi bilan bog'liq masalalar muhokama etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1) O'zbekiston ishchi kuchi yetkazib beradigan davlatmi? Qoraqolpog'iston Axborot Agentligi <https://kknews.uz/oz/61636.html>

2. O'zbekiston ishchi kuchi yetkazib beradigan davlatmi?—Qoraqolpog'iston Axborot Agentligi <https://kknews.uz/oz/61636.html>

3) Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/iqtisodiyot/halqaro-ishchi-kuchi-migratsiyas>